## «O‘zdonmahsulot» aksiyadorlik kompaniyasining 2016 yil uchinchi choragi bo‘yicha iqtisodiy ko‘rsatkichlari

Kompaniyani istiqbolli rivojlantirishning asosiy yo‘nalishi - ishlab chiqarishni uzluksiz texnologik jihatdan yangilash, ichki zaxiralarni doimiy ravishda izlash, iqtisodiyotda chuqur tarkibiy o‘zgartirishlarni amalga oshirish, sanoatni modernizatsiyalash va diversifikatsiyalashdan kelib chiqib, quyidagilar 2016 yilgi iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor vazifalaridan biri etib belgilangan:

kompaniya iqtisodiyotining raqobatdoshligini tubdan oshirish, eksport qiluvchi korxonalarni qo‘llab-quvvatlashni kuchaytirish, eksportda fermer xo‘jaliklari, kichik biznes va husosiy tadbirkorlikning ishtirokini har tomonlama rag‘batlantirish;

kompaniya iqtisodiyot tarmoqlariga zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish, “Elektron hukumat” tizimi yaratilishini tubdan jadallashtirish;

“Sog‘lom ona va bola yili” Davlat dasturida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash.

Iqtisodiyotda tub tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish bo‘yicha belgilab berilgan ustuvor vazifalar asosida kompaniya va tarkibdagi korxonalar iqtisodiy o‘sishning yuqori sur'atlarini ta'minlash, yangi quvvatlarni ishga tushirish, mavjudlarini zamonaviy yangi texnologiyalar asosida modernizatsiya qilish, tarmoqni diversifikatsiya qilish, import o‘rnini bosadigan hamda eksport qilishga yo‘naltirilgan raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish borasida keng qamrovli ishlar tashkil etildi.

Tarmoq korxonalarini modernizatsiyalash va yangi quvvatlarni jalb qilib, ishga tushirish, yangi zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash, axborot kommunikatsiya vositalarini joriy etish ishlariga alohida e'tibor berildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 25 dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasining 2016 yil uchun Investitsiya dasturlari to‘g‘risida”gi PQ-2458-sonli qaroriga muvofiq tarmoq korxonalarida investitsiya loyihalari amalga oshirildi.

Hisobot davrida korxonalarni modernizatsiya qilish va yangi quvvatlarni ishga tushirilishi bo‘yicha jami 12 ta loyiha amalga oshirildi, jumladan PQ-2458-sonli qaroriga asosan 3 ta loyiha “G‘alla-Alteg”, “Buxoro don mahsulotlari” va “Navoiy don mahsulotlari” korxonalarining tegirmon sexlari zamonaviy yangi texnologiyalar asosida modernizatsiya qilinib, ishga tushirildi.

Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 22 sentyabrdagi 05-05-41-2-sonli bayoniga muvofiq “Jizzax don mahsulotlari” korxonasida yangi texnologiyalar asosida non ishlab chiqaradigan 1 ta yangi sex ishga tushirildi.

Hududiy dasturlarga asosan 3 ta non mahsulotlari ishlab chiqaradigan yangi sexlar “Asaka don mahsulotlari”, “Jomboy don mahsulotlari”, “Don xalq rizqi” korxonlarida va 3 ta don saqlash uchun yopiq sig‘imlar “Buxoro don mahsulotlari” (Romiton, Vobkent), “Andijon don mahsulotlari” korxonalarida ishga tushirildi.

Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 7 avgustdagi 233-sonli qarori asosida “Xovos don mahsulotlari” korxonasida qumoqlangan (granulla) omixta yem ishlab chiqarish sexi ishga tushirildi.

Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 29 maydagi 142-sonli qarori asosida “SHoʻrchi don mahsulotlari” korxonasi tomonidan meva-sabzavotlarni quritish sexi ishga tushirildi.

2016 yilning 9 oyida 42 mlrd. 960 mln. soʻmlik kapital mablagʻlar oʻzlashtirildi hamda 172 ta yangi ish oʻrinlari yaratildi.

Kompaniya tizimida 2016 yilning 9 oy yakunlariga koʻra sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish oʻsish sur'ati 108,4 foizni va xalq iste'mol mollari ishlab chiqarish oʻsish sur'ati 103,8 fozni tashkil etdi.

Mahsulot ishlab chiqarish natura koʻrinishida un ishlab chiqarish oʻtgan yilning shu davriga nisbatan oʻsish sur'ati 94,8%, omixta yem oʻsish sur'ati 100,5%, non va non mahsulotlari oʻsish sur'ati 120,7 %, makaron mahsulotlari oʻsish sur'ati 100% ni tashkil etdi.

Tarmoq korxonalarida Axborot kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish boʻyicha:

Vazirlar Mahkamasining 2013 yil 31 dekabrdagi “Oʻzbekiston Respublikasida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish holatini baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi 355-son qarori bilan tasdiqlangan rasmiy veb-saytga qoʻyiladigan asosiy talablarga muvafiq kompaniya sayti takomillashtirildi. Baholash tizimini yanada oshirish maqsadida interaktiv davlat xizmatlari portalidagi jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini muddatlarida koʻrib chiqish, hujjatlar aylanish tizimi samaradorligini oshirish hamda mutaxassislarni axborot texnologiyalaridan foydalanish boʻyicha malakalari oshirish amalga oshirildi.

Axborot kommunikatsiya texnologiyalarini tizim korxonalarida joriy etish va rivojlantirish maqsadida fermer hoʻjaliklarida tayyorlanayotgan donni qabul qilish jarayonini shaffofligini ta'minlash uchun gʻallani onlayn tarzda elektron hisobga olish tizimi yaratilmoqda.

Kasb-hunar kollejlari bilan hamkorlik aloqalari, xodimlar malakasini oshirish boʻyicha:

Joriy yilda kasb-hunar kollejlari bilan hamkorlik aloqalarini davom ettirish, oʻquvchilarning ishlab chiqarish amaliyotlarini tashkil qilish, bitiruvchilarni ishga joylashtirish boʻyicha respublikadagi 16 ta qishloq xoʻjaligi kasb-hunar kollejlari tizim korxonalariga biriktirildi. Ushbu kollejlarni joriy yilda 4293 nafar oʻquvchi bitirdi.

Hisobot davrida “Bitiruvchi-kollej-ish beruvchi” oʻrtasida tuzilgan uch tomonlama shartnomalar asosida ushbu bitiruvchilar ishlab chiqarish amaliyotlari oʻtagan korxonalar tomonidan ishga qabul qilindi.

Korxonalarda mehnat unumdorligini oshirish, ularni zamonaviy texnologiyalar asosida ishlovchi malakali ishchi va xizmatchilar bilan ta'minlash maqsadida 1212 nafar xodim tegishli ta'lim muassasalari va malaka oshirish kurslarida oʻqitildi.

## 2011-2016 yillarda non va non mahsulotlari ishlab chiqarish dinamikasi




## 2011-2016 yillarda makaron mahsulotlari ishlab chiqarish dinamikasi



## 2011-2016 yillarda omuxta yem mahsulotlari ishlab chiqarish dinamikasi




## 2016 yilning 9 oyligidagi ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari

| Ko‘rsatkichlar | O‘sish sur'ati % |
|---|---|
| Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish | 108,4 |
| Xalq iste'moli mollari ishlab chiqarish | 103,8 |
| Un | 94,8 |
| Omuxta yem | 100,5 |
| Non va non mahsulotlari | 120,7 |
| Makaron mahsulotlari | 100,0 |

## 2016 yilning 9 oyligida yaratilgan qo‘shimcha ish o‘rinlari

| | Soni | % |
|---|---|---|
| Kasanachilik asosida | 485 | 118,3 |
| Investitsiya dasturi bo‘yicha | 46 | 209,1 |
| Tarmoq dasturi bo‘yicha | 126 | 206,6 |
| Jami yaratilgan ish o‘rinlari | 657 | 133,3 |